

ICHIMLIK SUV YETKAZIB BERISH

SHARTNOMA. № 10

“ 17 ” yanvar 2022 yil

Uchko'prik qishlog'i

Biz quyida qo'l imzo qo'yuvchilar O.SHukurov asosida faoliyat ko'rsatuvchi "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ Uchko'prik tuman filiali deb ataladi, ikkinchi tomondan Oripov.B orqali Uchko'prik tumani Tibbiyot birlashmasi o'z nizomi asosida faoliyat kursatuvchi Mijoz deb ataladi va Ushbu shartnomani quyidagilar xaqida tuzdik.

1. SHARTNOMADAN MAKSAD.

1.1. Ichimlik suv ta'minoti korxonasi suv tarmog'idan diametri 15 mm bo'lgan o'tkazish joyi orqali Mijoz va unga qarashli tashkilotlarga ichimlik suvi yetkazib berish.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.

2.1 Tomonlar amaldagi «O'zbekiston Respublikasida kommunal suv ta'minoti tarmoqlaridan foydalanish tartiblari» qoidalariga va boshqa me'yoriy xujjatlarga amal qilish majburiyatini oladi.

2.1.2 Ichimlik suv ta'minoti korxonasi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

2.1.3. Mijozga Ushbu shartnomada belgilangan xajmda yiliga 19417 kub/m, oyiga

 kub/m, sutkasiga kub/m miqdorida ichimlik suv etkazib berish. Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 29999265 (yigirma to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming ikki yuz oltinchi besh) so'mni tashkil etadi.

2.2.1 Mijoz quyidagilarni bajarishni o'z zimmasiga oladi.

2.2.2. Ichimlik suv sarfining belgilangan limitlar va rejimiga, shuningdek 1 va 2 gurux iste'molchilariga ta'llukli limitsiz ob'ektlarga xisob-kitob qilib chiqilgan sarf xarajatlarga rioya qilish.

2.2.3. Iste'mol qilinadigan suvni xisoblaydigan asbobga ega bo'lish. Suvni xisobini oladigan asbobni sotib olish, o'rnatish va unga xizmat ko'rsatishni o'z xisobidan amalga oshiradi. Suv xisobini qayd etuvchi asbob va qurilmalarning soz xolda saqlanishini ta'minlash. Suv o'lhagichni bir yilda bir marotaba texnik ko'rikdan o'tkazish.

2.2.4. Ichimlik suv ta'minoti korxonasining ruxsati bilangina suv abonentlarini o'zining xususiy suv va ichimlik suv ta'minoti tarmog'iga ulash va texnik nazoratini olib borish.

2.2.5. Suv ta'minoti tizimining unga kiruvchi barcha inshootlar va qurilmalar ishini shartnoma shartlarini bajarilishini tekshirish uchun Ichimlik suv ta'minoti korxonasi vakillarini Mijoz xo'jaligiga tusiqsiz kirishini ta'minlash.

2.2.6 Mijoz ichimlik suv korxonasi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar xaqqini kamida 100% foizini oldindan xar oyning 15 kuniga qadar to'lab borish majburiyatini oladi.

2.2.7 Mijoz Ichimlik suv korxonasi tomonidan ko'rsatilgan xizmat xaqqini, Ichimlik suv ta'minoti korxonasi tomonidan taqdim etilgan xisob-varag'ini olgandan so'ng 5 kun muddat ichida to'lashi shart.

2.2.8 Mijozni nomi, bankdagi joriy xisob raqami va boshqa xususiyatlari o'zgargan taqdirda u 5 kun muddat ichida Ichimlik suv korxonasiga yozma ma'lumot berishi shart.

3. MAXSUS SHARTLAR.

3.1.1 Mijoz quyidagi xujjatlarga ega bo'lishi zarur.

-ifloslantiruvchi moddalarni tashlashga cheklangan xolda yo'l quyilganligi xaqida xujjat pasporti.

- suvdan foydalanish va suv bilan ta'minlash shartlari shuningdek ichimlik suv tarmog'iga chiqindi suvlarni tashlashga Ichimlik suv ta'minoti korxonasining ruxsatnomasi.

- suv ta'minoti ulashga ichimlik suv korxonasining ruxsatnomasi.

3.1.2 Mijoz tomonidan mazkur shartnomaga o'ziga qarashli barcha inshootlarning joylashuvi aks etgan sxema ilova qilinishi shart. Sxemada quyidagilar ilova qilinishi shart.

Inshootlarning joylashuv o'rni va xajmi .

Suv o'lhagichlarning soni va ularning diametri.

Ichimlik suv ta'minotining xajmi, suv xajmi balansi kerakli suvning tasdiqlangan meyoriy xajmi qabul qilinayotgan ichimlik suvlarining miqdori va tarkibi.

Suv ta'minoti va ichimlik suvlarini qabul qilish sxemalari. Ichimlik suvini iste'mol qilishni kamaytirish chora tadbirlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Ushbu sxemada aks etgan shartlar va mijoz ob'ektlarini suv bilan ta'minlash undagi suv o'lhagichlarning but- butunligi va plombali bo'lishi xamda suv o'tkazish inshootlari va suv o'lash tarmog'i qurilmalari sozligi uchun javobgar ma'sul shaxsni .

Mijoz o'zining 202_ yil dagi buyrug'i bilan tayinlaydi.

4. XISOBGA OLIH TARTIBI

- 4.1. Sarflangan suv miqdorini xisobga olish _____
Manzilgoxlarga o'rnatilgan suv o'lchagich diametri _____ mm bo'lgan qoidaning 4 bo'limiga muvofiq xolda suv o'lchagichlarning ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.
- 4.2. Mijoz mazkur shartnoma imzolagan paytdan boshlab o'z kuchi va mablag'i evaziga suv sarfini xisobga oluvchi suv o'lchagich o'rnatish shart. Xisoblagich moslama belgilangan vaqtda o'rnatilmagan taqdirda mijoz tomonidan sarflangan suv miqdori quvurning _____ soat ichida to'la quvvat bilan suv o'tkazish qobiliyati bo'yicha aniqlanadi. Ya'ni quyidagicha ichimlik suvi tarmoqlarining o'tkazish imkoniyati bo'yicha ushbu formulada:

O-2,65 F TH

- Bunda: F-surma qopqoq ko'ndalangan qirqimining maydoni (kv.m), T-vakt, N-suvning bosimi .
- 4.3. Mijoz o'zidagi suv o'lchagichning nosozligini aniqlagan va ichimlik suv ta'minoti korxonasiga bu xaqda Ma'lum qilmagan taqdirda sarflanayotgan suv miqdori o'tgan uch oyda sarflangan suvning o'rtacha miqdoriga qarab aniqlanadi. Lekin bu xisob-kitob yangi suv o'lchagich o'rnatilgunga kadar 1 oy muddatgacha davom etadi (shu muddat ichida mijoz suv o'lchagichni o'z xisobidan tuzatishi yoki yangilashi zarur). Agar ko'rsatilgan muddat ichida suv o'lchagich o'rnatilmasa xisob-kitob 4.2. bandiga asosan davom ettiriladi.
- 4.4. Ichimlik suv ta'minoti korxonasi tomonidan mijoz xo'jaligi tekshirilganda mijoz suv o'lchagichi nosoz deb topilsa, shu kundan boshlab suv sarfini 4.2. bandiga ko'rsatilgan formula orqali xisoblanadi (mijoz o'z xisobidan ushbu nosozliklarni bartaraf etib ichimlik suv korxonasiga yozma ma'lum qilgunga qadar).
- 4.5. Mijozda ichimlik suvini xisobga oluvchi moslama bo'lgan taqdirda ichimlik suv tarmog'iga kelib tushayotgan chiqindi suvlar miqdorini xisob-kitob qilish «Suvdan foydalanish qoidalari» ga muvofiq amalga oshiriladi.
- 4.6. Ichimlik suv tarmoqlari xamda qurilmalarga o'zboshimchalik bilan ulanish xolatlari aniqlanganda sarflangan suvlar miqdori ana shularning o'tkazish qobiliyati bo'yicha sutkada 24 soat ichida suvlar xarakatining 1 metrlik diametрни to'ldirishdagi tezligi 1,5 sekund bo'lgan deb o'lanadi.
- 4.7. Ichimlik suvini ekin maydonlariga, xovlilarga, ko'chatlarga quyish qat'iyan ma'n etiladi. Agar yuqoridagi xolat ichimlik suv ta'minoti korxonasi vakillari tomonidan aniqlangan xolda dalolatnoma tuziladi. Mijoz ushbu dalolatnomaga imzo chekishdan bosh tortsa dalolatnoma ichimlik suv ta'minoti korxonasi vakili tomonidan imzolanadi va shu shartnomaning 4.2. bandiga muvofiq 1 oylik muddatga to'lov undirish uchun yetarli asos xisoblanadi.

5. XISOB-KITOBLAR.

- 5.1. Mijoz tomonidan ishlatiladigan suv uchun xisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 may kungi farmoniga muvofiq xolda suv xisoblagich o'rnatilmagan tashkilot va korxonalar uchun asosiy tarmoqdan ulangan kirish qismi (vvod) dan xisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.
- 5.2. Ichimlik suv ta'minoti korxonasi shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida ta'riflarni o'zgartirishga Bo'lgan xuquqini o'zida saqlab keladi.
- 5.3. Mijoz xisob-kitob raqamidan Ichimlik suv ta'minoti korxonasi xisobiga akseptis tartibida pul o'tkazish uchun to'lov xujjatini Ichimlik suv ta'minoti korxonasi tomonidan taqdim etiladi.
- 5.4. Mijoz tomonidan belgilangan limitdan ko'p sarflangan suv uchun to'lov limitdan oshiqcha foydalanilgan xar bir kub metr suv uchun oshirilgan bo'yicha 3 barobar miqdorida xaq muassasaning xo'jalik xisobidagi ikkilamchi xisob raqami xisobidan undiriladi.
- 5.5. Belgilangan to'lovlar bo'yicha e'tirozlar bo'lsa mijoz to'lov xujjatini olgach 5 kun muddat ichida Ichimlik suv korxonasiga yozma ravishda bildirishi shart.
- 5.6. Ichimlik suv ta'minoti korxonasi mazkur shartnomaning 2.2.3 bandiga belgilangan summa ifloslanish darajasi yuqori bo'lsa oshirilgan xolda xaqini oladi.
- 5.7. Mijozga sub abonentlar qushilgan xollarda; berilgan suv va qabul qilingan ichimlik suvlarga xisob-kitoblar mijoz, bilan amalga oshiriladi.
- 5.8. Mijoz tomonidan Ichimlik suv ta'minoti korxonasiga oshiqcha xaq to'langanligi xolati aniqlansa, Ichimlik suv ta'minoti korxonasiga kelib tushgan oshiqcha to'lov mijozga qaytarilmaydi balki keyingi xisob-kitoblar uchun olib quyiladi.

6. TOMONLARNING MAS'ULIYATI.

- 6.1. Tomonlar mas'ul shartnomada aks etmagan boshqa barcha masalalar bo'yicha amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini qo'llaydilar.
- 6.2. Suv tarmoqlari inshootlar va qurilmalar xolati xamda ulardan foydalanish uchun mas'uliyat chegarasi balansidagi buyum-jixozlar va tomonlarning mazkur shartnomaga qo'shgan foydalanish mas'uliyatlarini faktlab ajratib olish dalolatnomasi bilan belgilanadi.
- 6.3. Mijoz quyidagilar uchun javobgardir;
- 6.3.1 Mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlar va shartlarning xamda umumiy qoidalarning mijoz tomonidan bajarilmasligi oqibatida Ichimlik suv korxonasiga yetkazilgan zararni mijoz belgilangan tartibda To'lik qoplaydi.
- 6.3.2 O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi To'g'risida» gi qonuniga asosan to'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik shuningdek ko'rsatilgan xizmat xaqini to'lashdan bosh tortganlik (Bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik chekni bermaganlik akkreditini taqdim etmaganlik va xokazo) uchun imzo Ichimlik suv ta'minoti korxonasiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15%(foizi) miqdorida jarima to'laydi.

6.3.3 Ko'rsatilgan xizmat xaqini to'lamaganligi uchun mijoz Ichimlik suv ta'minoti korxonasiga o'tkazib yuborilgan xar-bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4%(foizi) miqdorida , ammo kechiktirilgan to'lov summasini 50%(foizi) dan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

6.3.4 Belgilangan to'lov ko'rsatilgan muddatda amalga oshirmasa, o'tkazib yuborilgan xar to'lov kuni uchun to'lanishi lozim bo'lgan summani 15% (foizi) miqdorida jarima xisoblanadi. (Vazirlar Maxkamasining 601-sonli qaroriga asosan) Mijoz ikki hafta muddat ichida belgilangan to'lovni amalga oshirmasa, Ichimlik suv ta'minoti korxonasi mijoz tarmog'ini oqoxlantirishsiz uzib quyish xuquqiga ega. Suv uzatish jarayonida mijoz tomonidan mavjud qarz uzilgandan xamda uzish va ulash uchun ketgan xarajatlar to'lik qoplangandan so'ng tasdiqlanadi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH, UZAYTIRISH ,TUGATISH TARTIBI.

7.1. Mazkur shartnoma « 31 » dekabr 2022 yilgacha qadar bo'lgan muddatga tuziladi. Shartnoma ikki nusxadan tuzilgan bo'lib bir nusxasi Ichimlik suv ta'minoti korxonasida ikki nusxasi mijozda saqlanadi.

Shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, G'aznachilik bo'linmasidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

7.2. Shartnoma tomonlarning arizasi bilan yoki amaldagi qonunchilikka asosan bekor qilinadi.

7.3. Shartnomani bajarish chog'ida kelib chiqadigan baxs-munozaralar amaldagi qonunlar asosida tomonlarning o'zaro kelishuvi yoki xo'jalik sudi orqali xal etiladi.

8. FORS-MAJOR XOLATLARI.

8.1 Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmaz kuch mavjud bo'lgan taqdirda Ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi xolatlarga: suv toshqini. Yonin.yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar shuningdek xarbiy xarakatlar davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlal tegishlidir.

8.2 Taraflar Ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida ikkinchi tarafni oqoxlantirishi shart.

8.3 Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uzuliksiz davom etsa taraflar bir-birini yozma ravishda oqoxlantirib shartnomaning ijrosini bekor qilish mumkin.

TOMONLARNING XUQUQIY MANZILGOXLARI.(REKVIZITLARI)

«TA'MINOTCHI»

«ISTE'MOLCHI»

“Farg‘ona suv ta‘minoti” MCHJ Uchko‘prik tuman filiali

Manzil: Uchko‘prik tumani SHodlik ko‘chasi

X/R: 22638000100194935464

INN: 200144908 OKONX: 90213

MFO: 00544

Bank nomi: Ipateka bank kukon filiali

Raxbar:  O.SHukurov

Nomi: Uchko‘prik tumani Tibbiyot birlashmasi

Manzili: Uchko‘prik tumani Sog‘lom avlod ko‘chasi 123 uy

SHXV: 100022860302217073101054001

INN: 200193111 OKONX: 91511

Uchko‘prik G‘aznachilik bo‘linmasi

X/R: 23402000300100001010

INN: 201122919 MFO: 00014

Bank nomi: Toshkent shaxar Markaziy bank Bosh boshqarmasi X.K.K.M

Raxbar:  B.Oripov
(imzo)
(F.I.O)



№ ___ SHARTNOMAGA 1-ILOVA.

Mijoz byudjet tashkilotidan bo'lganligi sababli, smetada ajratilgan mablag'dan ortiqcha suv sarf qilsa, mijoz ortiqcha sarflangan ichimlik suv mablag'ini o'z xisobidan to'laydi.

LIMIT.

2022 yil

№	Oylar	Ulchov birligi	Miqdori	Narxi	Summa
1.	YAnvar	m3	6472	1545	9999240
2.	Fevral	m3	6472	1545	9999240
3.	Mart	m3	6473	1545	10000785
4.	Aprel	m3	0	0	0
5.	May	m3	0	0	0
6.	Iyun	m3	0	0	0
7.	Iyul	m3	0	0	0
8.	Avgust	m3	0	0	0
9.	Sentyabr	m3	0	0	0
10.	Oktyabr	m3	0	0	0
11.	Noyabr	m3	0	0	0
12.	Dekabr	m3	0	0	0
J a m i :			19417	x	29999265

“Farg‘ona suv ta‘minoti” MCHJ
Uchko‘prik tuman filiali
Bosh hisobchisi



[Handwritten signature]

MIJoz



[Handwritten signature]

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ QG11260454

1. Loyihaning turi:

Ichimlik suvi yetkazib berish shartnomasi

2. Loyiha ishlab chiqilgan va yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga kiritilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot:

Shartnoma loyihasi 2022-yil 17-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 28-yanvar kuni Uchko‘prik tumani yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga «E-Huquqshunos» elektron tizimi orqali taqdim qilingan.

3. Mahsulot yetkazib berish shartnomasining qisqacha mazmuni:

Nizom asosida faoliyat yurituvchi Uchkuprik tumani tibbiyot birlashmasi (keyingi o‘rinlarda “Iste‘molchi” deb ataladi), raxbari Oripov Bahodir Xasanovich, bir tomondan Nizomga asosan faoliyat yurituvchi Farg‘ona suv taminot MCHJ Uchko‘prik tumani filiali (suv ta‘minoti tashkiloti nomi keyingi o‘rinlarda “Yetkazib beruvchi” deb ataladi), direktori O Shukurov ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnoma loyihasi ishlab chiqilgan.

Shartnoma loyihasiga ko‘ra,

Yetkazib beruvchi o‘z zimmasiga diametri 15mm bo‘lgan quvir orqali Iste‘molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo‘yicha ichimlik suvi yetkazib berish majburiyatini oladi, Iste‘molchi esa o‘z zimmasiga ushbu shartnomaning tegishli bandida ko‘rsatilgan ulangan tarmoq orqali yetkazib berilgan ichimlik suvi uchun xaq to‘lash majburiyatini oladi hamda to‘lovlarni belgilangan narx bo‘yicha o‘z muddatida amalga oshiradi.

Shartnomaning umumiy summasi yigirma to‘qqiz million to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz ming ikki yuz oltmish ming so‘mni tashkil qiladi. Tomonlarning majburiyatlarni bajarmasligidan kelib chiqadigan javobgarlik Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonuniga asosan xal etiladi.

4. Shartnoma loyihasining qonunchilik hujjatlari asosida o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga, “Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa normativ hujjatlarga asosan.

Xizmat ko‘rsatish shartnomasi loyihasi o‘rganib chiqilib, xulosa qilindi:

Xizmat ko'rsatish shartnomasi loyihasi Qonunchilik hujjatlari asosida o'rganib chiqilishi natijasida ushbu shartnoma loyihasi Qonunchilik xujjatlariga muvofiq deb topilsin.

**Uchko'prik tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh
yuriskonsulti**



A.Usmonov
2022-yil 28-yanvar